



## 2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **14386,8 mlrd. so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **95,3 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish **2702,7 mlrd. so'mni**, o'sish sur'ati **110,9 % ni** tashkil etdi.
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **18,8 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **22,1 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida viloyat korxonalaridan 14386,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 95,3 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida, sanoat ishlab chiqarish indeksi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda – 90,9 % ni, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida – 98,4 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 102,2 % ni va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda – 99,8 % ni tashkil etdi.

### 2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi







### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.***

Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6477,7 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 45,0 % ni tashkil etdi.

Tog' - kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tabiiy gaz hajmining – 96,5 % ni, gaz kondensati – 98,2 % ni, neft qazib olish – 93,5 % ni, qum – 82,1 % ni, shag'al – 107,3 ni, chaqiq tosh – 73,6 % ni tashkil etdi.

### ***Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan	Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	<b>Tabiiy gaz, mln. kub. m.</b>		
25224,9		24333,0	96,5 ↓
	<b>Gaz kondensati, ming t.</b>		
1057,3		1043,6	98,2 ↓
	<b>Neft, ming t.</b>		
424,9		397,4	93,5 ↓
	<b>Qum, ming t.</b>		
137,5		112,9	82,1 ↓

2018 yil yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019 yil yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
141,7	<b>Shag'al, ming t.</b> 	152,0	107,3 ↑
112,0	<b>Chaqiq tosh, ming t.</b> 	82,5	73,6 ↓


### ***Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).***

2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6032,3 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 42,0 % ni tashkil etdi.

### **2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarish sanoati tarkibi, %**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni (2018 – yil yanvar - sentyabr oylarida – 0,04 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 28,2 % (29,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 6,8 % (6,06 %) va quyi texnologiyali – 64,9 % (64,5 %) tashkil etdi.

### **Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %**



O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida o'tgan yilning mos davriga nisbatan paxta tolasi – 39,2 % ni, o'simlik yog'i (tozalangan) – 55,7 % ni, yumshoq bug`doy va spelta uni – 112,2 % ni, ip-kalava – 124,1 % ni, plastmassa quvurlar – 98,0 % ni, alkogol ichimliklar – 98,1 % ni, kaliy xlorid – 107,3 % ni va polietilen – 100,6 % ni tashkil etdi.

***Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik korxonalar tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

2018 yil yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
	<b>Paxta tolasi, t.</b>		
76802,0		30080,0	39,2 ↓
	<b>O'simlik yog'i (tozalangan), t.</b>		
16763,3		9342,1	55,7 ↓
	<b>Yumshoq bug`doy va spelta uni, t.</b>		
91715,1		102898,4	112,2 ↑
	<b>Ip-kalava, t.</b>		
14355,0		17818,0	124,1 ↑
	<b>Plastmassa quvurlar, t.</b>		
3316,0		3249,0	98,0 ↓
	<b>Alkogol ichimliklar, ming litr</b>		
2054,0		2009,0	97,8 ↓

2018 yil yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019 yil yanvar – sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, % da
137,0	<b>Kaliy xlorid, ming t. K2O</b> 	147,0	107,3 ↑
98,8	<b>Polietilen, ming t.</b> 	99,4	100,6 ↑



### ***Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.***

2019 yil yanvar - sentyabr oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1759,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 12,2 % ni) tashkil etdi.

### ***Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish.***

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 116,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash bo'yicha xizmatlarning 3,3 % ga, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish va utilitatsiya qilish bo'yicha xizmatlarning esa 1,3 % ga oshganligini kuzatildi.



### ***Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.***

2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 2702,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,9 % ni tashkil etdi, jami sanoatdagi ulushi esa 18,8 % ni tashkil etdi.


### ***2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari***




2019 yil yanvar - sentyabr oylarida iste'mol mollari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 56,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlari - 43,4 %, va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo – 2,4 % tashkil etdi.

### Yanvar - sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

2018 yil



2019 yil




■ Oziq-ovqat tovarlari  
 ■ Nooziq-ovqat tovarlari  
 ■ Oziq-ovqat tovarlari  
 ■ Nooziq-ovqat tovarlari

### Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Muborak tumani (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 33,8 %), G'uzor tumani (20,5 %), Qarshi shahri (13,0 %), Nishon (10,5 %), Qarshi (3,9 %) va Koson (3,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


### 2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da



Shu bilan birga eng kam ulush Kasbi (1,1 %), Chiroqchi (1,3 %), Mirishkor (1,3 %), Qamashi (1,4 %), Shahrisabz (1,7 %) va Yakkabog' (1,7 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Jami sanoat mahsulot ishlab chiqarish hajmidan Muborak tumani 4860,1 mlrd. so`mni, G`uzor tumani 2950,2 mlrd. so`mni, Qarshi shahri 1865,4 mlrd. so`mni va Nishon tumani 1513,2 mlrd. so`mni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida shahar va tumanlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so`m**





**2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo`yicha sanoat ishlab chiqarish indeksi, 2018 yil yanvar - sentyabr oylariga nisbatan, % da**



—●— 2018 yil yanvar - sentyabrga nisbatan, % da

Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo`yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida Kitob tumanida (2018 yil yanvar – sentyabr oylariga nisbatan 111,1 %), Shahrisabz sh. (109,1 %), Dehqonobod tumanida (105,0 %), Qarshi sh. (104,2 %), Yakkabog' (104,2 %) va Qarshi (103,7 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

**2019 yil yanvar - sentyabr oylarida shahar va tumanlar bo`yicha  
istemol mollari ishlab chiqarish hajmi va o`shish sur`ati**


	mlrd. so`m	2018 yil yanvar – sentyabrga nisbatan o`shish, %
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	2702,7	110,9
Qarshi sh.	855,9	112,0
Shahrisabz sh.	201,5	109,5
tumanlar:		
G'uzor	67,1	110,6
Dehqonobod	43,6	112,6
Qamashi	131,0	112,8
Qarshi	155,5	110,5
Koson	234,5	103,5
Kitob	171,5	111,9
Mirishkor	59,9	113,0
Muborak	60,4	112,6
Nishon	65,1	113,1
Kasbi	76,1	112,8
Chiroqchi	160,8	112,7
Shahrisabz	222,4	111,2
Yakkabog`	197,4	111,4

Iste`mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi Nishon tumanida (2018 yil yanvar - sentyabr oylariga nisbatan 113,1 % ni), Mirishkor tumanida (113,0 % ni), Kasbi tumanida (112,8 % ni), Qamashi tumanida (112,8 % ni), Chiroqchi tumanida (112,7 % ni), Muborak tumanida (112,6 ni) va Dehqonobod tumanida (112,6 % ni) tashkil etdi.

Shuningdek, Iste`mol tovarlari hajmining eng katta qismi Qarshi shahar (iste`mol tovarlari hajmida 31,7 %), Koson tumanida (8,7 %), Shahrisabz tumanida (8,2 %) va Shahrisabz shahrida (7,5 %) ishlab chiqarildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Muborak tumanida (56877,8 ming so'm), G'uzor tumanida (14701,1 ming so'm), Nishon tumanida (10089,1 ming so'm) va Qarshi shahrida (6840,9 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (4444,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

**2019 yilning yanvar – sentyabr oylarida shahar va tumanlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda**




### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 22,1 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Kitob tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chiroqchi tumanida (93,0 %), Qamashi (90,4 %), Shahrisabz tumanida (78,1 %), Yakkabog` tumanida (77,1 %), Qarshi shahrida (62,9 %) va Shahrisabz shahrida (51,2 %) kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush Muborak tumanida (1,5 %), G'uzor tumanida (2,3 %), Nishon tumanida (8,2 %) va Dehqonobod tumanida (11,4 %) kuzatildi.


### ***2019 yilning yanvar - sentyabr oylarida tumanlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da***



### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda viloyatda 3 mingdan ziyod sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 674 tasi Qarshi shahrida, 401 tasi Kitob tumanida, 295 tasi Yakkabog` tumanida, 290 tasi Shahrisabz shahrida, 266 tasi Qarshi tumanida, 244 tasi Chiroqchi tumanida, 186 tasi Qamashi tumanida, 169 tasi Shahrisabz tumanida, 168 tasi Koson tumanida, 154 tasi G`uzor tumanida, 121 tasi Nishon tumanida, 113 tasi Kasbi tumanida, 74 tasi Mirishkor tumanida, 64 tasi Dehqonobod tumanida va 60 tasi Muborak tumanida joylashgan.

### **2019 yil 1 oktyabr holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni**



Joriy yilning yanvar - sentyabr oylarida viloyatda 969 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 167 tasi Qarshi shahriga, 91 tasi Yakkabog` tumaniga, 89 tasi Chiroqchi tumaniga, 86 tasi Qarshi tumaniga, 81 tasi Kitob tumaniga, 74 tasi Shahrisabz tumaniga, 61 tasi Nishon tumaniga, 70 tasi Shahrisabz shahriga, 50 tasi Qamashi tumaniga, 47 tasi Kasbi tumaniga, 52 tasi G`uzor tumaniga, 39 tasi Koson tumaniga, 28 tasi Mirishkor tumaniga, 18 tasi Dehqonobod tumaniga va 16 tasi Muborak tumaniga to'g'ri keladi.

Sanoat statistikasi bo`limi

Tel.: (75) 221-32-36